

## TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Usmonova Hafizaxon**

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayoni, amalga oshirilayotgan ishlar sifat va samaradorligi, yurtimiz olimlarining mazkur masala yuzasidan amalga oshirib kelayotgan tadqiqotlar asosida nazariy xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya fani, nazariy asos, kompetentlik, qadriyat, bilim, hayotiy tajriba.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining asosiylaridan biri – bu yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deyilganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z Vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tarbiyalash bugungi kun talabiga hamohangdir. Ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin. Tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayoni hozirgi kunda, yosh avlodni tarbiyalash, davlat va jamiyat talablari asosida inson kaapitalini yaratishda muhim dolzarb vazifa sanaladi. Ushbu dolzarb vazifani hal etishda tadqiqotchi olimlarning muammoga tegishli nazariy va amaliy fikrlarini o'rganish va tahlil qilish zarur.

Bu, ayniqsa, tarbiya fani o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini hal etishda muhim omil sifatida ahamiyatga ega.

Qo‘yilgan muammoni hal etish uchun «kompetentlik», «kasbiy kompetentlik», «o‘qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchalari mohiyatini aniqlashga asosiy yondashuvlarni tahlil qilamiz (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Kompetentli yondashuv asosida kasbiy shakllangan bo‘lajak o‘qituvchi tarbiyalash jarayoni**

Adabiyotlarni o‘rganish natijalari ko‘rsatishicha: birinchidan, «kompetentlik» tushunchasining falsafiy va psixologik lug‘atlardagi talqini mavjud emas; ikkinchidan, ba’zi mualliflar psixologik-pedagogik adabiyotlarda «kompetentlik» va «kompetentsiya» tushunchalarini ajratmaydilar.

«Kompetentsiya» va «kompetentlik» tushunchalarini farqlash uchun mazkur tushunchalar rus tili atamalar lug‘atida, boshqaruv bo‘yicha atamalar lug‘ati va boshqalarda qanday ifodalanganligini tahlil qilamiz. «Kompetentsiya» tushunchasi lug‘atlarda quyidagicha talqin etiladi:

✚ bu muayyan organ yoki mansabdor shaxsning qonun bilan, mazkur organ ustavi yoki boshqa qoidalar bilan belgilangan vakolatlari (huquq va majburiyatlari) yig‘indisi;

✚ kimdir yaxshi xabardor bo‘lgan masalalar sohasi;

Mazkur ta’riflardan ko‘rinib turganidek, kompetentsiya tushunchasi turlicha talqin etiladi.

B.Xodjayevning fikricha kompetentsiya (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman ma’nolarini bildiradi) – sub’ektning maqsadni qo‘yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorligi boshqacha qilib aytganda, bu sub’ektning muayyan kasbiy masalalarini yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.

N.M.Muslimovning fikricha inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi “qobiliyat” demakdir, biroq kompetentsiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi.

N.V.Tarasova “kompetentsiya” tushunchasini “muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o‘rtasida aloqadorlikni ta’minlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat” sifatida talqin etadi.

Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetentsiya insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma’lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin.

Demak, bizning fikrimizcha ham kompetentsiya insonga nafaqat kasbiy, balki uning butun hayotiy faoliyati davomida kerak bo‘ladigan qobiliyatlar yig‘indisidir. Ularni to‘la egallamay turib hech bir mutaxxasis o‘z pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli yurita olmaydi.

Kompetentsiyaning turlarini tasniflashga doir xilma xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, M.B.Urazova kasbiy ta’lim nuqtai nazaridan kompetentsiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

❖ maxsus kompetentsiya – yetarli yuqori darajada o‘z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyixalashtira olish;

❖ ijtimoiy kompetentsiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o‘z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

❖ shaxsiy kompetentsiya – shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

❖ individual kompetentsiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qo‘llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o‘shish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil reabilitatsiya qilishga tayyorgarlik;

❖ asosiy kompetentsiyalar – moslashish va maxsuldor faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko‘nikmalari

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, kompetentsiyalarning har bir turi kasb ta’limi o‘qituvchilarining uzluksiz ravishda rivojlanib borishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va qobiliyatlari yig‘indisidir. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, kompetentsiyalarning metodik harakteri insonning butun hayoti davomidagi nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish imkoniyatini yaratadi.

Demak, tarbiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda hamda zarur pedagogik shart – sharoitlarni ta’minlashda kompetensiyaviy yondashuv alohida o‘rin tutadi. Tarbiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonida dastlabki vazifa ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim. Yuqoridagi yondoshuvlar va tahlillardan kelib chiqqan holda tarbiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy ahamiyatini ushbu fanning mazmunidan kelib chiqqan holda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Urazova M.B. Bo‘lajak kasbiy ta’lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. ped. fan. dokt. diss.... avtoref. – T.: 2015.
2. Xodjaev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didiktik ta’minot vositasida rivojlantirish. Dis...ped.fan. dok – T.: 2016. – 314-b.